O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar, xususan, davlat korxonalarini xususiylashtirish, ularni aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish, fond bozorini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish jarayonlari moliyaviy barqarorlikni ilmiy asoslangan usullar bilan baholash zaruratini keskin oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–2025-yillarga mo'ljallangan fond bozorini rivojlantirish strategiyasi doirasida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini shaffof va xalqaro standartlarga mos baholash tizimini joriy etish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-son<sup>1</sup> Qonunining yangi tahriri korxonalarning moliyaviy hisobotini Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablariga moslashtirish va ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha talablarni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda "Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-254-son<sup>2</sup> Farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjatga muvofiq, 2030-yilgacha kapital bozori orqali kamida 1 mlrd AQSh dollari miqdorida qo'shimcha investitsiya jalb etish, shu jumladan 5 trln so'mlik korporativ obligatsiyalar chiqarish ko'zda tutilgan. Farmonda kapital bozori ishtirokchilarining investitsiyalari xavfsizligini ta'minlovchi mexanizmlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bartaraf etiladigan huquqbuzarliklar ulushini 85 foizdan oshirish maqsad qilib qo'yilgan.

Kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida "dual listing", xorijiy valutada obligatsiyalar, global depozitar tilxatlar va birja investitsiya fondlari kabi zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etish rejalashtirilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy barqarorlikni baholash masalalari jahon iqtisodiy adabiyotlarida keng yoritilgan. Xorijiy olimlardan E. Altman, W. Beaver, S. Claessens va L. Laeven kabi tadqiqotchilarning ishlari ushbu sohaning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Xususan, Altman tomonidan 1968-yilda ishlab chiqilgan Z-ko'rsatkichi modeli bankrotlik xavfini oldindan baholash imkonini beruvchi eng mashhur va keng qo'llaniladigan integral usullardan biri hisoblanadi<sup>3</sup>. MDH olimlaridan I. N. Samonova, I. V. Vasileva, R. M. Milakin, N. V. Klochkova, N. E. Kondrateva, E. A. Mordanova kabi olimlarning aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslarni boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonlik olimlardan Q. X. Abdurahmonov, S. Ergasheva, D. Jo'rayev, U. Tursunov, B. Usmonov, F. Abdullaeva, Z. Fayziev, M. Norqulov, A. Allamuradova, F. Jumaniyazova kabi mualliflarning ilmiy ishlari milliy iqtisodiyot sharoitida moliyaviy barqarorlikni baholash metodologiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Xususan, Norqulov tomonidan 2020–2024-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlar asosida listingdan o'tgan 18 ta yirik aksiyadorlik jamiyatining likvidlik, to'lov qobiliyati, rentabellik va bozor qiymati koeffitsiyentlari kompleks tahlil qilingan<sup>4</sup>.

Moliyaviy barqarorlikni baholash masalalari iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida markaziy o'rinlardan birini egallab, bu sohaga oid ilmiy adabiyotlar juda keng va xilma-xildir.

Ushbu ta'riflarni umumlashtirgan holda, moliyaviy barqarorlik korxonaning o'z majburiyatlarini bajarish, to'lov qobiliyatini saqlash va uzoq muddatli istiqbolda rivojlanish qobiliyatini ifodalovchi kompleks kategoriya ekanligi xulosasini chiqarish mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot moliyaviy barqarorlikni baholashning umumilmiy va maxsus usullarini kompleks qo'llashga asoslangan. Nazariy-uslubiy tahlil bosqichida moliyaviy barqarorlik toifasining mohiyati, uni belgilovchi omillar va baholash usullari tizimlashtirilib, bunda tahlil, sintez, induksiya, deduksiya usullaridan foydalanildi. Moliyaviy barqarorlikni baholashda koeffitsiyentli tahlil (likvidlik, to'lov qobiliyati, rentabellik, ishbilarmonlik

1 <https://lex.uz/docs/-2382409>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-dekabrda "Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. – <https://kun.uz/news/2025/12/23/ozbekiston-kapital-bozorida-zamonaviy-moliyaviy-instrumentlar-joriy-etiladi>

3 Testing Altman's Z"-Score to assess the level of accuracy of the model in Mexican companies / [https://www.scielo.org.mx/scielo.php?script=sci\\_arttext\\_plus&pid=S2007-07052021000200207&lng=es&tlng=en&nrm=iso#2](https://www.scielo.org.mx/scielo.php?script=sci_arttext_plus&pid=S2007-07052021000200207&lng=es&tlng=en&nrm=iso#2)

4 Norqulov M. O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy koeffitsiyentlari tahlili // Global Economics and Development. – 2026. – Vol. 4, No. 5. – DOI: 10.5281/zenodo.20236611. <https://ideas.repec.org/a/teu/ged000/v4y2026i5id10480.html>



faolligi va kapital tuzilmasi ko'rsatkichlari), E. Altmanning Z-ko'rsatkichi modeli (bankrotlik xavfini integral baholash uchun) hamda DuPont dekompozitsiyasi usuli (o'z kapitali rentabelligiga omillarning ta'sirini aniqlash maqsadida) qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini baholash zamonaviy korporativ boshqaruv tizimining muhim tarkibiy elementlaridan biri hisoblanadi. Chunki aksiyadorlik jamiyatlari nafaqat alohida xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida, balki iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida faoliyat yurituvchi yirik korporativ tuzilmalar sifatida ham namoyon bo'ladi. Ularning moliyaviy holatini muntazam baholab borish investitsion jozibadorlikni oshirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Moliyaviy barqarorlikni baholashda korxonaning kapital tarkibi, aktivlar va majburiyatlar nisbati, likvidlik darajasi, to'lov qobiliyati hamda moliyaviy mustaqillik holati asosiy mezon sifatida qaraladi. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari uchun mazkur ko'rsatkichlarning ahamiyati yuqori bo'lib, chunki ularning moliyaviy holati aksiyadorlar manfaatlarini, investorlarning ishonchi hamda fond bozorida mavqeiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida aksiyadorlik jamiyatlari son jihatdan boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarga nisbatan kam bo'lsa-da, iqtisodiy salohiyati va ishlab chiqarish hajmi jihatidan muhim o'rin egallaydi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-iyul holatiga mamlakatimizda jami 397 308 ta tijorat korxonasi faoliyat yuritgan bo'lib, shundan 649 tasi aksiyadorlik jamiyatlari hisoblanadi.

Ushbu holat aksiyadorlik jamiyatlari umumiy korxonalar tarkibida son jihatdan katta ulushga ega emasligini ko'rsatsa-da, ularning aksariyati yirik kapital sig'imli, strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalar ekanligi bilan izohlanadi. Shu sababli mazkur subyektlarning moliyaviy barqarorligini baholashda oddiy statistik son ko'rsatkichlaridan ko'ra, ularning moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi va kapital tuzilmasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2025-yil)<sup>5</sup>

| Tashkiliy-huquqiy shakli                 | Korxonalar soni | Umumiy tarkibdagi ulushi, % |
|------------------------------------------|-----------------|-----------------------------|
| <b>Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar</b> | 306 026         | 77,0                        |
| <b>Xususiy korxonalar</b>                | 48 886          | 12,3                        |
| <b>Oilaviy korxonalar</b>                | 38 234          | 9,6                         |
| <b>Aksiyadorlik jamiyatlari</b>          | <b>649</b>      | <b>0,16</b>                 |
| <b>Boshqa tashkiliy shakllar</b>         | 3 513           | 0,94                        |
| <b>Jami</b>                              | <b>397 308</b>  | <b>100,0</b>                |

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda korxonalarning asosiy qismini mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etib, ularning ulushi 77 foizni tashkil qiladi. Aksiyadorlik jamiyatlari esa jami tijorat korxonalarining atigi 0,16 foiziga teng bo'lishiga qaramay, iqtisodiyotda yuqori kapital hajmiga ega subyektlar sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur holat aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy ahamiyati ularning soni bilan emas, balki moliyaviy resurslari, ishlab chiqarish quvvati, investitsion loyihalari va bozor qiymati bilan belgilanayotganligini ko'rsatadi. Shu sababli ushbu korxonalar faoliyatini baholashda an'anaviy statistik ko'rsatkichlardan tashqari, moliyaviy barqarorlik indikatorlarini kompleks qo'llash talab etiladi.

Moliyaviy barqarorlikni baholash jarayonida eng muhim masalalardan biri — korxonaning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lari o'rtasidagi optimal nisbatni aniqlash hisoblanadi. Chunki kapital tarkibidagi nomutanosiblik korxonaning moliyaviy xavf darajasini oshirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini baholashda koeffitsiyentlar usuli keng qo'llaniladi.

Mazkur usul korxonaning moliyaviy mustaqilligi, likvidligi, to'lov qobiliyati va rentabelligini aniqlash imkonini beradi. Xususan, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti korxonaning aktivlari tarkibida o'z kapitalining ulushini ifodalaydi va uning yuqori qiymati korxonaning tashqi moliyaviy manbalarga qaramligini kamaytiradi.

5 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.  
<https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/62575-o-zbekistonda-qancha-aksiyadorlik-jamiyatlari-faoliyat-yuritmoqda>



Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholash ham muhim hisoblanadi. Chunki qarz kapitalidan oqilona foydalanish korxona rivojlanishini tezlashtirishi mumkin, biroq uning haddan tashqari oshishi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini baholashda bir nechta ko'rsatkichlarni yagona tizim sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini baholashda faqat korxonaning moliyaviy natijalarini aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, balki uning kapital tuzilmasi, moliyaviy xavf darajasi va uzoq muddatli to'lov qobiliyatini kompleks baholash talab etiladi. Shu sababli xalqaro amaliyotda ham, mahalliy iqtisodiy tadqiqotlarda ham moliyaviy koeffitsiyentlar tizimidan keng foydalaniladi (2-jadval).

2-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini baholashning asosiy ko'rsatkichlari tizimi<sup>6</sup>

| Ko'rsatkich nomi                                                    | Hisoblash formulasi                                      | Iqtisodiy mazmuni                                                                            | Tavsiya etiladigan daraja |
|---------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------|
| <b>Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti</b>                         | O'z kapitali / Jami aktivlar                             | Korxona aktivlarining qanchalik qismi o'z mablag'lari hisobidan shakllanganligini ko'rsatadi | $\geq 0,5$                |
| <b>Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti</b>                            | Jami majburiyatlar / Jami aktivlar                       | Korxonaning tashqi moliyalashtirish manbalariga bog'liqlik darajasini ifodalaydi             | $\leq 0,5$                |
| <b>Qarz va kapital nisbati koeffitsiyenti</b>                       | Majburiyatlar / O'z kapitali                             | Jalb qilingan mablag'larning aksiyadorlar kapitaliga nisbatan darajasini ko'rsatadi          | $\leq 1,0$                |
| <b>Joriy likvidlik koeffitsiyenti</b>                               | Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar                     | Korxonaning qisqa muddatli qarzlarni qoplash imkoniyatini baholaydi                          | 1,5–2,5                   |
| <b>O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti</b> | (O'z kapitali – Uzoq muddatli aktivlar) / Joriy aktivlar | Aylanma mablag'larning ichki manbalar hisobidan shakllanish darajasini ko'rsatadi            | $\geq 0,1$                |
| <b>Aktivlar rentabelligi (ROA)</b>                                  | Sof foyda / Jami aktivlar $\times 100$                   | Aktivlardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi                                           | $\geq 5 \%$               |
| <b>Kapital rentabelligi (ROE)</b>                                   | Sof foyda / O'z kapitali $\times 100$                    | Aksiyadorlar tomonidan kiritilgan kapital samaradorligini baholaydi                          | $\geq 10 \%$              |

2-jadval ma'lumotlari asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy indikatorlar tizimi shakllantirildi. Ushbu ko'rsatkichlar korxonaning nafaqat joriy moliyaviy holatini, balki kelgusidagi rivojlanish imkoniyatlarini ham baholash imkonini beradi.

Birinchi navbatda, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti aksiyadorlik jamiyatlari uchun eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mazkur koeffitsiyent korxona aktivlarining qaysi qismi aksiyadorlar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotganligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi korxonaning tashqi kreditorlarga qaramligini kamaytiradi va moliyaviy xavfsizlik darajasini oshiradi.

Amaliyotda ushbu koeffitsiyentning 0,5 dan yuqori bo'lishi korxona moliyaviy jihatdan mustaqil ekanligini anglatadi. Agar mazkur ko'rsatkich past bo'lsa, bu korxona faoliyatida qarz mablag'larining ulushi ortib borayotganligini va moliyaviy tavakkalchilik kuchayayotganligini bildiradi.

Shuningdek, moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti aksiyadorlik jamiyatining tashqi moliyalashtirish manbalariga bog'liqligini baholash imkonini beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qarz mablag'laridan foydalanish tabiiy jarayon hisoblanadi, biroq ularning haddan tashqari ko'payishi korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida joriy likvidlik koeffitsiyenti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu ko'rsatkich korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatini ifodalaydi. Likvidlik darajasining pastligi to'lov intizomining buzilishi, kreditorlar oldidagi majburiyatlarning bajarilmasligi va investitsion jozibadorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy barqarorlikni baholashda faqat bitta ko'rsatkichdan foydalanish yetarli emas. Masalan, korxonaning o'z kapitali yuqori bo'lishi uning mutlaq barqarorligini anglatmaydi, chunki aktivlardan foydalanish samaradorligi past bo'lsa, kapitalning iqtisodiy samarasi kamayishi mumkin. Shu sababli moliyaviy mustaqillik, likvidlik va rentabellik ko'rsatkichlarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish zarur.

6 Moliyaviy tahlilning xalqaro metodik yondashuvlari hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi korxonalar moliyaviy ko'rsatkichlarini shakllantirish uslubiyoti asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



Tadqiqot davomida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini baholashda mavjud asosiy uslubiy yondashuvlar tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, amaliyotda quyidagi yondashuvlar keng qo'llaniladi:

1. Koeffitsiyentlar asosidagi baholash usuli - Mazkur usul eng ko'p qo'llaniladigan an'anaviy yondashuv bo'lib, korxonaning moliyaviy holatini alohida indikatorlar orqali baholash imkonini beradi. Uning afzalligi oddiyligi va amaliy qo'llash imkoniyatining yuqoriligidadir. Biroq ushbu usul ayrim hollarda ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni to'liq hisobga olmaydi.

2. Reyting asosidagi baholash usuli - Ushbu yondashuvda korxonalar bir nechta moliyaviy ko'rsatkichlar asosida reyting qilinadi. Mazkur usul investorlar uchun qulay axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ko'rsatkichlarga beriladigan baholarning subyektivligi uning asosiy kamchiligi hisoblanadi.

3. Integral baholash usuli - Integral yondashuv bir nechta moliyaviy indikatorlarni yagona umumlashtirilgan indeksga birlashtirish imkonini beradi. Ushbu usul zamonaviy sharoitda eng istiqbolli yondashuvlardan biri hisoblanadi, chunki u korxonaning umumiy moliyaviy barqarorlik darajasini kompleks aks ettiradi.

Olib borilgan tahlillar natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini baholashda quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

- moliyaviy barqarorlikni baholashda faqat daromad va foyda ko'rsatkichlariga emas, balki kapital tarkibi va likvidlik holatiga ham alohida e'tibor qaratish zarur;
- o'z kapitalining yetarli darajada shakllanganligi korxonaning uzoq muddatli moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydi;
- qarz mablag'laridan samarali foydalanish korxona rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, biroq qarz yukining ortishi moliyaviy xavfni oshiradi;
- aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini obyektiv baholash uchun koeffitsiyentlar tizimini integral baholash usuli bilan birlashtirish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini baholashda kompleks uslubiy yondashuvdan foydalanish korxonaning real moliyaviy imkoniyatlarini aniqlash, investitsion jozibadorligini oshirish hamda samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uni muntazam baholab borish zamonaviy korporativ boshqaruv tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega bo'lgan yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatida nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki investitsion faolligi, kapital bozori rivoji va iqtisodiy o'sish jarayonlariga ta'siri bilan ham ajralib turadi. Shu sababli ularning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish va barqarorlik darajasini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligi, avvalo, kapital tarkibining maqbulligi, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi, qarz yukining boshqarilishi, likvidlik holati va faoliyat rentabelligiga bog'liq. Xususan, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining yuqori darajada bo'lishi korxonaning tashqi moliyaviy manbalarga qaramligini kamaytiradi va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini oshiradi. Shu bilan birga, qarz mablag'laridan oqilona foydalanish korxonaning ishlab chiqarish va investitsion faoliyatini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini baholash tizimini takomillashtirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini baholashda faqat an'anaviy moliyaviy koeffitsiyentlar bilan cheklanib qolmasdan, ularni yagona kompleks baholash tizimiga birlashtirish lozim. Bunda moliyaviy mustaqillik, likvidlik, rentabellik va qarz yukini ifodalovchi ko'rsatkichlarning umumiy indeksini shakllantirish korxonaning real holatini aniqroq baholash imkonini beradi.

Ikkinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida kapital tuzilmasini optimallashtirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Xususan, o'z kapitali va jalb qilingan mablag'lar o'rtasidagi optimal nisbatni shakllantirish moliyaviy xavflarni kamaytirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, moliyaviy barqarorlikni baholash jarayoniga zamonaviy raqamli tahlil vositalarini joriy etish maqsadga muvofiq. Moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish tizimlari orqali korxonaning moliyaviy xavflarini oldindan aniqlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati kengayadi.

To'rtinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy barqarorlik monitoringini muntazam amalga oshirish tizimini takomillashtirish zarur. Bunda yillik moliyaviy natijalarni baholash bilan bir qatorda, choraklik va oylik monitoring mexanizmlaridan foydalanish korxonaning moliyaviy muammolarini erta aniqlash imkonini beradi.

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini baholashning takomillashtirilgan uslubiy yondashuvi korxonalarning moliyaviy holatini yanada obyektiv aniqlash, investorlar uchun ishonchli



axborot bazasini yaratish hamda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi. Taklif etilgan yondashuvlardan foydalanish aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-2382409>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda "Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-254-son Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/ru/pdfs/-7932083>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrda "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-291-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6590025>
4. 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda kapital bozorini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda nutqi. – <https://kun.uz/news/2025/12/26/mahalliy-kompaniyalarga-ichki-bozorda-xorijiy-valutada-obligatsiya-chiqarishga-ruxsat-beriladi>
5. 6. Altman E.I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23, No. 4. – P. 589–609. – DOI: 10.1111/j.1540-6261.1968.tb00843.x.
6. 7. Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. – 1976. – Vol. 3, No. 4. – P. 305–360. – DOI: 10.1016/0304-405X(76)90026-X.
7. 8. Norqulov M. O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy koeffitsiyentlari tahlili // Global Economics and Development. – 2026. – Vol. 4, No. 5. – DOI: 10.5281/zenodo.20236611. <https://ideas.repec.org/a/teu/ged000/v4y2026i5id10480.html>
8. 9. Abdullaeva F. Enhancing financial stability analysis of economic entities in Uzbekistan // Central Asian Journal of Innovations in Tourism and Management Finance. – 2025. – Vol. 6, No. 3. – DOI: 10.51699/cajitmf.v6i3.952.
9. 10. Allamuradova A. Improving the methodology for assessing the financial stability of enterprises // International Journal of Economic Perspectives. – 2025. – Vol. 19, No. 5. – P. 12–14.
10. 11. Ergasheva S. O'zbekiston korxonalarida moliyaviy ko'rsatkichlar monitoringining avtomatlashtirilgan tizimi // Iqtisodiyot va moliya. – 2023. – №5. – B. 34–42.
11. 12. Usmonov B. Kapital aktivlarini baholashda Modilyani-Miller modelining ahamiyati // Biznes-ekspert. – 2022. – №8. – B. 28–35.
12. 13. Fayziev Z. Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy resurslarini boshqarishni takomillashtirish yo'llari // Science and Innovation. – 2024. – 18 may.
13. 14. Klochkova N.V., Kondratyeva N.E., Mordanova E.A. Upravleniye finansovymi resursami aktsionernykh obshchestv v sovremennykh usloviyakh // Finansovyy menedzhment. – 2020. – №4. – S. 45–58.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 9/1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>